



## XALQ O'YINLARI - ETNOMADANIYATNING TARKIBIY QISMI

**Qosimjonova Nodirabegim Farkodjon qizi**

Farg'on'a davlat universiteti  
Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2023

Online: 03<sup>rd</sup> June 2023

### KEY WORDS

Mehnat o'yinlari, o'yin-raqlar, menganlik, olishish, nayza otish, qilichbozlik, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlar.

### ABSTRACT

Ushbu maqolada xalq o'yinlari va ularning inson hayotidagi o'rni haqida so'z boradi. Ongli mehnat va tajriba asosida turli o'yinlar paydo bo'ladi. Chunki o'yinlar boshqalar tajribasidan, ilg'orlar yutug'idan, keksalar ibratidan, avlodlar merosidan samarali foydalanishga imkoniyat yaratgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, marosim, san'at, ijod kabi madaniyat turlarining vujudga kelishida va rivojlanishida o'yinlar o'ta muhim rol o'ynagan. Shuningdek, o'yin bolani katta hayotga tayyorlashda mashq vazifasini bajarib, kelajakda hayotda duch keladigan turli holatlarga ma'naviy tayyorlaydi. Agar bola o'yinda halol o'ynasa, keyinchalik hayotda ham halol bo'ladi yoki bola o'yiniga qarab, uni qanday odam bo'lishini aytish mumkin, degan naqlar bekorga aytilmagan bo'lsa kerak.

### KIRISH

Dehqonchilik vujudga kelishi va rivojlanishi ikki an'ana: ya'ni bahorda mehnat mavsumiga kirish va kuzda hosilni yig'ish yakuniga bag'ishlangan marosim bayramlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, yoz bo'yи mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirgan dehqonlar xursand bo'lganidan o'ziga xos xirmon to'yini o'tkazib, unda mehnat jarayonlarini o'yinlar orqali aks ettirishgan. Bu "Mehnat o'yinlari" yaxshi kayfiyatda, bayram holatida o'tgan. Shunday qilib, eng qadimiy davrdan boshlab inson hayotida termachilik, ovchilik, chorvachilik, deqqonchilikka oid mehnat tajribalari bilan birga o'yin-raqlar shakllana boshlaydi. Ongli mehnat va tajriba asosida turli o'yinlar paydo bo'ladi. Chunki o'yinlar boshqalar tajribasidan, ilg'or-lar yutug'idan, keksalar ibratidan, avlodlar merosidan samarali foydalanishga imkoniyat yaratgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, marosim, san'at, ijod kabi madaniyat turlarining vujudga kelishida va rivojlanishida o'yinlar o'ta muhim rol o'ynagan. Obrazli qilib aytganda, o'yin ko'pgina qadimiy madaniy turlarining, jumladan, raqs, teatr, sport kabilarning "onasi" hisoblanadi. Dastlab o'yin insonlarning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan bo'lsa, keyinchalik inson o'yinni ri-vojlantirdi. Har bir tarixiy davr o'z o'yinlarini yaratadi va bu o'yinlar o'z davri kishisini tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOLOGIYA



O'yinlar xalq hayotining muhim qismi bo'lganligini Sharq allomalari -Firdavsiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Kayqovus, Alisher Navoiy, Boburlarning asarlaridan ham bilsa bo'ladi. Chunki Firdavsiy-o'yinlari, Beruniy qadimgi xalqlar o'yinlari, Ibn Sino - o'yinning shifobaxsh xususiyatlari, Mahmud Qoshg'ariy -turkiy xalqlarga oid ko'plab o'zin turlarining bayoni, Qayqovus - o'yinlarda qatnashish odobi, Alisher Navoiy - pahlavonlik o'yinlarining badiiy ifodasi, Bobur - o'yinlar zavq-shavqi haqida jiddiy fikrlar izhor etganlar. Tarixiy adabiyotlardan bilamizki, qadimgi va o'rta asrlar davridagi minglab o'yinlar ichida shunday musobaqa bo'lganki, bunda shaharning ikki qism vakillari orasida "qilich jangi", "Tuya poygasi", "Tuyalar jangi", "Oqliqlar poygasi" va hokazolar o'tkazilgan. Ularga shahar ahli yil davomida tayyorgarlik ko'rishgan. O'rta asr Sharq miniatyuralaridagi "Chavgon o'yini", (qoboq o'yini), "Chimto'p" kabi tasvir-o'yinlar katta qiziqish uyg'otadi<sup>1</sup>. Afsonaviy va tarixiy shaxslarning shakllanishida xalq o'yinlari muhim o'r'in tutgan. Masalan, Alpomishning alp qomatli pahlavon bo'lishida merganlik, olishish, nayza otish, qilichbozlik, chavandozlik, ot, kurash kabi musobaqa o'yinlari asosiy omil bo'lgan. Sohibqiron Amir Temurning har tomonlama kamol topishida ham o'yinlar ham katta rol o'ynagan. Amir Temur yoshligida olishuv-kurash, ot o'yinlari, chavandozlik, poyga, merganlik, (tirandozlik), qilichbozlik, tosh ko'tarish, uzoqqa chopish kabi musobaqalarda qatnashib, chiniqqan. Yoshligidagi bu o'yin-mashqlar keyinchalik Sohibqironga juda asqotgan. O'yinlarning eng muhim tomonlari shundaki, inson hayotida erisholmagan yoki o'ziga yetishmaydigan narsalar, hodisalarga o'zin yordamida erishardi. O'zin orqali inson (jismoniy, ruhiy, aqliy) kuchi rivojlantirilgan, uning yordamida, kerak bo'lsa, inson ortiqcha kuchini ham o'zidan chiqarib yuborgan, sarflagan.

## NATIJA

O'zbekiston hududida umumxalq - hamma biladigan qiziqarli o'yinlar bilan birga har bir hudud, joyga xos o'yinlar bo'lgan. Bir joyda ma'lum bo'lgan o'zin boshqa joydagilarga noma'lum bo'lgan. Buni o'qituvchi A.Vasilevning maqolasi tasdiqlashi mumkin. U 1909 yili bolalarning o'nlab harakatli o'yinlarini to'plab, yozib qoldirgan. Shulardan, "Chumchuq tushdi boshimga" o'yini Farg'onada keng tarqalgan, lekin Toshkentda yashovchilardan so'ralganda birortasi bilmagan. Vasilevning xizmati shundan iborat-ki, u Farg'onaliklarning juda ko'plab o'yinlarini yozib qoldirgan. Bular "Botmon-botmot", "qushning boshi", "Kapan", "Do'ppi tashlar", "Parr etdi", "Shayton-shayton" va boshqalar. Shahar va qishloq o'yinlari orasida ham ma'lum farqlar bo'lgan<sup>2</sup>. Agar qishloq o'yinlarining ko'pchiligi keng dalalarda o'tkazilsa, shahar o'yinlari kichik maydonlarda o'tgan. Masalan, Toshkentlik qizlar orasida "Chigirik"-oyida aylangan qo'lda koptok o'ynash), "Charak"(yerda chizib qo'yilgan to'rtburchak chiziqlar orasida sakrash), "Arkon o'yin" (arqondan sakrab o'tish), "Tosh o'yin"(mayda toshchalar) kabi o'yinlar o'r'in egallagan. Shuningdek, qizlar o'ynash uchun navbat bilan bir-birlarining hovlilariga to'planganlar, bu an'anaviy shakl "qalfana" qizlarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishda o'ziga xos uyushma hisoblangan.

## MUHOKAMA

Keyinchalik o'yinlar o'rnini o'qish va asta-sekin ish va mehnat egallay boradi. O'yinlar bolalar uchun "hayotga tayyorlanish maktabi" bo'lib, ularning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi. O'zin bola ongi, tafakkurini o'stirib, xotira, diqqat, irodasini

<sup>1</sup> Murodova M. Folklor va etnografiya. Toshkent – "Aloqachi"- 2008, 85-90-betlar.

<sup>2</sup> Murodova M. Folklor va etnografiya. Toshkent – "Aloqachi"- 2008, 85-87-betlar.



mustahkamlaydi, jismoniy, ruhiy, hissiy (Emosional) taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o'yin bolani katta hayotga tayyorlashda mashq vazifasini bajarib, kelajakda hayotda duch keladigan turli holatlarga ma'naviy tayyorlaydi. Agar bola o'yinda halol o'ynasa, keyinchalik hayotda ham halol bo'ladi yoki bola o'yiniga qarab, uni qanday odam bo'lishini aytish mumkin, degan naqlar bekorga aytilmagan bo'lsa kerak. Qisqa qilib aytganda, o'yin bolalarda ijodiy faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'yinlarda bolalarni o'rab turgan dunyonи tushunish va unga ta'sir qilish ehtiyoji shakllanadi, aqliy, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlari shakllanadi, bir so'z bilan aytganda o'yin yordamida inson tarbiyalanadi, shaxs shakllanadi.

## XULOSA

Shunday qilib, o'yin insonning chuqur ma'naviy, ruhiy va jismoniy ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlangan. O'yin juda qadim zamonlardanoq kishilar shakllanishi va rivojlanishining muhim shakllaridan biri bo'lgan. Tarixiy rivojlanish jarayonida har bir etnik guruh (qabila, uruq, elat, millat) ning hayotiy-tabiyy ehtiyojlari asosida o'ziga xos o'yinlar va ma'naviy-ruhiy, jismoniy madaniyati vujudga kelgan. Shuning uchun o'yin asoslarini va jumladan, boy va serqirra xalq o'yinlarini chuqur va har tomonlama o'rganish muhim aqamiyatga egadir. Ma'lumki, har bir xalq boy o'yin manbaiga ega. Uzbek xalqi ham bundan istisno bo'lmay, u juda boy o'yin merosiga ega. Xalq bag'rida minglab o'yinlar mavjud bo'lib, bularning orasida hammaga ma'lum o'yinlar bilan bir qatorda, ayrim mintaqalarga xos o'yinlar ham bo'lgan, ba'zan bir qishloq o'yinlari boshqa qishloq o'yinlaridan farq qilgan. Bularidan tashqari, o'zbek xalqining an'analarini orasida turli yoshdagilar, turli jinsdagilar, yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos o'yinlar tizimi ham bo'lgan.

## References:

1. Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat. —T.; 1994.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqot» jurn. 5-son. 1999-y.
3. Imomov K. va bosh. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: «O'qituvchi» 1990.
4. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T.: ANavoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007
5. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. — T.: Fan, 1998.
6. История первобытного общества. — М.: Наука, 1988.
7. История Узбекистана в источниках. — Т.: Фан, 1984.
7. Косвен И. Очерки истории первобытной культуры. - М., 1957.